

O'ZBEKISTONDA TO'Y AN'ANALARI TARIXI VA BUGUNI

Karimova Sarvinoz

Farg'onan Davlat universiteti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Xolmatova Maloxatxon

Ilmiy rahbar: 51-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab

amalyotchi psixolog

Annotatsiya: Har bir millat o'zining qadimdan saqlanib kelgan an'analariga va urf – odatlariga ega. Xususan, o'zbek xalqi ham asrlar davomida shakllanib kelgan o'ziga xos etnografik tarixiga ega bo'lgan xalq. Mana shunday urf-odat va an'analar ichida xalqimizning to'ylari qadim zamonaran to hozirgacha saqlanib kelinayotgan asosiy marosimlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: urf-odat, to'y, marosim, an'ana diniy marosimlar, qadriyatlar.

Xalqimiz uzoq o'tmishdan to bugungi kungacha o'zining an'analarini, qadriyatlarini urf-odatlari tarixiga ega bo'lib asrlar osha uni o'z qalbi va ma'naviyatiga singdirib kelmoqda. Tarix inson hayotining rivojlanishi, yuksalib borishi va kelajak avlod uchun muhim bo'lgan ehtiyojlarni yaratishga asos bo'lib qilishdan tashqari o'tmishdagi otabobolarimizning yashab o'tgan hayot tarziniadolatlilik, halollik va tanqidiy ruhda tahlil qilishni o'zining asosiy vazifasi deb hisoblaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mamlakatizning o'tmishiga nazar soladigan bo'lsak juda ham qadimiy davlatlar safidan o'rin egallagan. Ona diyorimizning mana shunday o'ziga xos xususiyati moddiy emas balki, ma'daniy jahbalarida ham o'z ifodasini topgan. Bunday an'ana va odatlarimiz etnograf olimlar, tarixchilar, va sayohatchilar o'z asarlarida ko'plab

ma'lumotlar keltirib o'tganlar. Masalan, Rui Gonsales de Klavixoning "Kundalik", Xerman Vamberning "Sayohatnoma" kabi asarlarini misol qilshimiz mumkin. Bundan tashqari boshqa olimarning ilmiy asarlarida ham o'zbek xalqining etnik kelib chiqishi, moddiy va ma'naviy turmush tarzi, shu jumladan, to'y marosimlari haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlarning uchratishimiz mumkin. Mana shunday asar mualliflaridan biri K.Shoniyozovdir. Biz bu olimning asarlarida o'zbek xalqining to'yalarini haqida o'zimiz uchun kerakli ma'lumtolarni o'rganishimiz mumkin.

Etnografiyaning nazariy muammolari qatoriga kiruvchi insoniyat hayotining muhim bir qismi bo'lgan oila-nikoh masalalari mavzusiga qaratilgan X. Ismoilov, S.Davletova, G. Zunnunova, M. Kosven, M.Ibrogimova, N. Azimova, I. Jabborov singari olimlarning asarlari maqolaning uslubiy asoslarni belgilab olishga yordam beradi.

Mazkur maqolaning asosiy qismi dala etnografik materillardan iborat. Dala etnografik materaiallari suhbat shaxsiy kuzatuv asosida to'planadi.

Muhokama va natijalar

Mamlakatamiz mustaqilligi bizga uzoq zamonlardan yashab o'tgan ajdodlarimizdan biz yosh avlodlarga meros bo'lib qolgan an'analarimiz, urfatlarimiz, qadriyatlarimizni mukkamal o'rganishga imkon berdi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, qadimdan to'y- tomosha shaydosi xalqimizning to'y marosimlariga aloqador an'analari va urf – odatlari insonlarning xursandchilik va quvochi hisoblanib qolmasdan, balki bir necha ming yillardan beri amal qilinib kelinayotgan islomiy qarashlarining majmui sanaladi. To'ylarni o'tkazish jarayonida mehmonnavozlik, inoqlik, izzat –ikrom, kabi insoniy fazilatlar o'zining yorqin ifodasini topgan. Inson zotini qadrlash, hurmatlash va ulug'lashda To'ylar beqiyos ro'1 o'ynaydi.

To'y so'zi qanday kelib chiqqan va qachondan beri bu so'zdan foydaalaniladi Agar biz tarixiy manbalarga suyanadigan bo'lsak, "to'y" atamasi turkiy sso'z bo'lib, "toy", "qurutoy" ko'rinishda mo'g'ullar va chig'atoy xonlari zamonida bu so'zdan keng qamrovda foydalilanilgan.XIV asrda Movarounnahr hududdiga sayohat qilgan arab sayyohi Ibn Batuta yozib qoldirgan manbalarga qaraganda "toy" bu har yili

o‘tkaziladigan yig‘in ya’ni qurultoy hisoblanib, unda Chingizzon avlodlari, amirlar, turkiy beklar, obro‘li ayollar va lashkarboshilar ishtirok etishgan. “Tavorixi xorazmshoxiya” (1864) asarida keltirib o‘tilgan ma’lumotga nazar soladigan bo‘lsak, vazir Xasan –Murod qushbegining o‘g‘li Muhammad Yusufbek xonning qiziga uylanib to‘ bir necha kun davom etgan. Mazkur yuqorida sanab o‘tilgan ma’lumotlardan kelib chiqib shuni aytshimiz mumkinki, “ to‘y” bir necha ming yillik tarix ega ekan. Ya’ni bu atama qadim zamonlarda yuqori mansabli kishilar, zodagonlar, kishilar to‘planadigan katta –katta yig‘inlarda bu so‘zdan keng foydalanib kelingan. Bundan ko‘rinib turibdiki, to‘y o‘sha zamonlarda ham kishilar tomonidan dabdaba va hashamatli ziyoftlar tashkil qilinib o‘tkazildigan marosim hisoblanar ekan. Va bundan xulosa qilishimiz mumkinki, to‘ylarni bunday dabdbali qilib o‘tkazish o‘sha zamonlardan beri biz insonlarga urf – odat bo‘lib kelmoqda.

O‘zbegim to‘ylari bir necha turlarga bo‘linadi; beshik to‘yi, xatna to‘yi, nikoh to‘yi, hovli to‘yi. To‘y bir kishing shaxsiy ishi bo‘lmay, u ko‘pchilik yig‘iladigan keng jamoatchilik yig‘inlarida o‘kaziladi.

Islom olamida insoniyat hayotining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oila munosabatlari nikohdan boshlanadi. Bunda ikki yoshning yangi hayotga ilk qadami tashlanadi. Mana shu nikoh to‘ylari xalqimizning murakkab urf –odatlar, irim –sirimlarning bajarilishi bilan boshqa to‘ylardan ajralib turadi.

Nikoh to‘y marosimlarini boshab beruvchi dastlabki marosim sovchilik hisoblanadi. Sovchilik ham ota –bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan asosiy urf –odatlardan biri hisobladi. Xalqimizda “Sovchilik –savob ishdir “ degan naql bor. Bu jarayonda ikki yoshning yaqin qarindosh – urug‘lari, qo‘ni –qo‘snilari yoki ularning yaqin o‘rtog‘lari ham ishtirok etishi mumkin. Undan keyin ikki tomon ham maslahatlashib bir qarorga kelinadi. Agar oilalar bir-biriga har taraflama to‘g‘ri kelishsa to‘yga rozilik beriladi. Mana shunday qilib jamiyatning asosiy bo‘gini hisoblangan oila vujudga keladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning mana shunday go‘zal marosimlari-yu, urf –odatlari va qadriyalariga ega.

Lekin shuni ham aytib o‘tish kerakki, jamiyatimizda bunday marosimlarni o‘tkazishda haddan tashqari dabdabavozlik, isrofgarchilik kabi salbiy illatlar ham tobora ko‘payib bormoqda. To‘ylarni mana shu tarzda o‘tkazish hozirgi kunda urfga aylandi desak yanglishmagan bo‘lamiz. Azaldan xalqimiz judayam mehmondo‘st, saxiy, o‘zining quvonch-u shodliklarini boshqalar bilan baham ko‘rishni xush ko‘radigan xalq. Lekin har qanday holatda ham bunday zarali illatlarga ruju qo‘ymaslik kerak.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Karimov I.A “Yukak ma’naviyat- yengilmas kuch”-T., 2008.
2. Ashirov A.A “O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari”- T., 2009
3. Shaniyozov K. “ O‘zbek – qarluqi
4. <http://welcomeuzbekistan.uz//ru//aboutuzbekistan/tadition-and-customs/htm>
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (2000-2005).